

**MEHRI UMMON, QALBI DARYO, OLIMLARNING
OLAMIDAGI USTOZ**

Musayeva Shaxlo

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Ustoz hayot tushunchasi paydo bo‘lganidan buyon yashab kelayotgan siymo. Shu bois, azal-azaldan ustoz-murabbiylarga bo‘lgan ishonch, hurmat-izzat o‘zgacha. Ustoz deganda, har qaysi inson ko‘nglida chuqur hurmat-ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg‘ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o‘lchab va ado qilib bo‘lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo‘ladi. Inson, avvalo, unga bilim va ma’rifat dunyosi sari yo‘l ochib bergen, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo‘lida zahmat chekkan ustozga nisbatan ko‘nglida hamisha minnatdorlik tuyg‘usi bilan yashaydi.

Rahmatulla Barakayev deganda kimningdir ko‘z oldiga kamtarin, kamsuxan, lekin xonasiga kelganda bolalarcha jilmayib turib, o‘tkir zehni bilan kirgan insonning nima maqsadda xonaga kirganini tezda fahmlay oladigan inson keladi. Kimdir ustozning ko‘rsatgan yordamini eslaydi. Kimdir beminnat mehrini qo‘msaydi.

Ustozning ijodiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” mavzusi bilan 1994- yil ilk bolalar adabiyoti o‘rganilishi zarurligini yuzaga olib chiqqan bo‘lib, shu kunga qadar bu faoliyatini faqat o‘zi, balki shogirdlari bilan ham amalga oshirmoqda. Ustoz Barakayev o‘zi va shogirdlari bilan hamkorlikda monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy-ommaviy maqolalar chop etib, o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiyoti tarixi muammolarini o‘rganib kelmoqda.

Rahmatulla Barakayev haqida so‘z aytganlar ko‘p. Aytmoqchi bo‘lganlar esa undan-da ko‘p. Ustozning do‘satlari va shogirdlari qalbidagi yorug‘ xotiralar – o‘zi alohida olam. Ular qog‘ozga tushsa, ibrat va o‘rnak ko‘zgusiga aylanishi tayin. Ulug‘ ustozga shogird bo‘lish baxti menga ham nasib etganidan xursandman. Ustozim ko‘magi va yordami bilan shu yili olimlar safidan joy olib, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori degan unvonga ega bo‘ldim. Bunday baxtga muyassar bo‘lishimda ustozning mehnatlari beqiyosdir. Mana, Ustozning ikki og‘iz shirin so‘zi, umidbaxsh maslahatlaridan ruhlanib, nima yozsak , ustoz nima derkan, degan mas’uliyat bilan ish tutib, shu kunlarga, shu unvonlargacha yetib keldik. Shu sababli Ustozimga cheksiz minnatdorchiligidni bildiraman.

Ustoz halolligi, mehnatsevarligi, fan yo‘lidagi tinmay izlanishlari, yoshlarga nisbatan xayrixohlik, mehribonligi, har qadamda qo‘llashga urinishlari singari olim

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

va insonga xos ajoyib fazilatlari bilan ajralib turadi, u kishining bu xislatlari shogirdlariga o‘rnak va yorqin namuna bo‘ladi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Ustozdan olganlarim juda ko‘p, har birini sanab tugata olmayman, masalan –sabrni, ilmda shoshmaslikni, har bir aytilgan maslahat besamar emaslikni, yaxshilik javobsiz qolmasligini, har qanday insonga ham yaxshilik bilan javob qaytarishni o‘rgandim.

U kishi bilan o‘tkazgan har bir suhbat kishining ruhiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Shaxsan menda ilmiy ishdan tashqari, oilamdagи turmush sharoitimga, qiyinchiliklarga e’tibor qaratishlari, farzandlarimning ta’lim-tarbiyasida, mehnat faoliyatidagi duch kelayotgan masalalar bilan yaqindan qiziqishlari, o‘z maslahatlarini berishlari, hatto muammolarni hal etishga ko‘rsatgan amaliy ko‘maklaridan doim minnatdorman. Dunyo hamisha ezgu niyatli odamlar, buyuk ishlarga qodir salohiyatli insonlarning va atoqli olimlarning borligi va fidoyiligi bilan barqarordir. Hadislarda aytilganidek, kasbning eng yaxshisi kishining o‘z qo‘li bilan bajarilgan ishi va halol savobidir. Qanchadan yosh iste’dodlar ustozning tekin maslahati bilan ilmda o‘z yo‘li, o‘z uslubini topmoqda. Ustoz o‘zgalarning muammolariga hech qachon loqayd qaramaydi, ezgu ishlarga hamisha kamarbasta.

Har bir inson hayotda qanday yutuqqa erishgan bo‘lsa, ularda qadrdon ustozlarining beqiyos hissasi borligini umrbod minnatdorlik bilan eslaydi. Shaxsan men ustoz deganda — zamon bilan hamqadam bo‘lgan jonkuyar, ziyoli shaxsni, bilim va ma’rifat yog‘dusi taralib turadigan, Rahmatulla Barakayevni ko‘z oldimga keltiraman.

Ustozim, olimlikning olamdek bag‘ri keng insoni, ilm ummoning tengsiz javohiri, O‘zbek bolalar adabiyotining so‘nmas shamchirog‘i Barakayev Rahmatulla bundan ortiq ta’rif va so‘z shart emas. Yetmishda yosharib, saksonda sakrab, to‘qson bilan to‘qnashib, yuz bilan yuzlashganingizda ham bizdek shogirdlarga kamarbasta bo‘lishdan charchamang, aziz ustozim!